INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

BANKLARDA ASOSIY VOSITALAR VA NOMODDIY AKTIVLAR HISOBI

"Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi katta o‘qituvchisi
O.M.Esanov
Normurodova Zuhra Orzimurod qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada banklarda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobini yuritish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida asosiy vositalarning dastlabki qiymatini shakllantirish, ularning eskirishini hisoblash hamda nomoddiy aktivlarni tan olish va hisobga olish tartibi o‘rganildi. Shuningdek, aktivlarni buxgalteriya hujjatlarida aks ettirish, sintetik va analitik hisobni yuritish tizimi hamda tegishli schyotlardan foydalanish amaliyoti ko‘rib chiqildi. Natijada ushbu jarayonlarning banklarning moliyaviy barqarorligi va hisobotlar ishonchliligiga ta’siri baholandi.

Kalit so‘zlar: Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, buxgalteriya hisobi, amortizatsiya, dastlabki qiymat, sintetik hisob, analitik hisob, moliyaviy hisobot, bank aktivlari, IFRS standartlari.

Kirish

Bugungi kunda bank tizimining barqaror rivojlanishi va moliyaviy xizmatlar ko‘lami kengayib borayotgan sharoitda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni to‘g‘ri hisobga olish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki banklarning moddiy va nomoddiy resurslari ularning moliyaviy barqarorligi, operatsion samaradorligi hamda raqobatbardoshligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bois ushbu aktivlarni buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirish, ularning qiymatini aniq baholash va eskirishini belgilangan tartibda hisoblash muhim ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, so‘nggi yillarda banklarda raqamli texnologiyalar, dasturiy ta’minotlar va intellektual resurslar ulushi sezilarli darajada oshib bormoqda. Bu esa nomoddiy aktivlar hisobini yuritish jarayonini murakkablashtirib, ularni tan olish va baholashda xalqaro standartlarga (IFRS) qat’iy rioya qilish zaruratini kuchaytirmoqda. Ushbu maqolada banklarda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobini yuritishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinib, ularning moliyaviy hisobotlar ishonchliligiga ta’siri o‘rganiladi.

Adabiyotlar sharhi

Banklarda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobini tashkil etish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda muhim o‘rin egallaydi. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar aktivlarning iqtisodiy mohiyatini aniqlash, ularni tasniflash hamda hisobga olish metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan. Xususan, Kieso o‘z ilmiy ishlarida “asosiy vositalarni uzoq muddatli aktivlar sifatida e’tirof etib, ularning qiymatini amortizatsiya orqali bosqichma-bosqich xarajatlarga o‘tkazish zarurligi”1ni asoslab bergan. Uning yondashuvi asosiy vositalarning hisobini yuritishda zamonaviy nazariy asoslardan biri hisoblanadi.

Nomoddiy aktivlarning iqtisodiy mazmuni va ularni hisobga olish masalalari ham iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Bu borada Weygandt nomoddiy aktivlarni moddiy shaklga ega bo‘lmagan, biroq kelgusida iqtisodiy manfaat keltiruvchi resurslar sifatida ta’riflaydi. Uning

1 Kieso D.E., Weygandt J.J., Warfield T.D. Intermediate Accounting. – 16th ed. – New York: Wiley, 2020. – p. 512–530.

fikricha, “nomoddiy aktivlarni tan olish uchun ularning identifikatsiya qilinishi va kelgusidagi iqtisodiy foyda keltirish ehtimoli asosiy mezon hisoblanadi”2.

Asosiy vositalarni baholash va amortizatsiya qilish usullari masalasi Horngren tomonidan atroflicha o‘rganilgan. U “asosiy vositalarni dastlabki qiymatda tan olish va keyinchalik ularni tizimli ravishda amortizatsiya qilish zarurligi”3ni ta’kidlaydi. Shuningdek, u amortizatsiya usullarini tanlashda aktivning foydalanish muddati va iqtisodiy foyda olish xususiyatlarini inobatga olish muhimligini qayd etadi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari ushbu sohada asosiy me’yoriy asos bo‘lib xizmat qiladi. IAS 16 “Asosiy vositalar” standarti asosiy vositalarni tan olish, baholash va amortizatsiya qilish tartibini belgilab beradi. Mazkur standartga ko‘ra, asosiy vositalar dastlabki qiymatda hisobga olinadi va ularning qiymati foydalanish muddati davomida tizimli ravishda amortizatsiya qilinadi.

Nomoddiy aktivlar hisobini tartibga solishda IAS 38 “Nomoddiy aktivlar” standarti muhim ahamiyatga ega. Ushbu standartda nomoddiy aktivlarni tan olish uchun ularning aniq identifikatsiya qilinishi, nazorat qilinishi va kelgusida iqtisodiy foyda keltirishi zarurligi ta’kidlangan. Shuningdek, standart nomoddiy aktivlarni baholash va amortizatsiya qilish tartibini ham belgilaydi.

Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda ham ushbu masalalar keng o‘rganilgan. Jumladan, A. Vahobov o‘z tadqiqotlarida buxgalteriya hisobi tizimida “asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning o‘rni hamda ularni hisobga olishning milliy xususiyatlari”4ni tahlil qilgan. U milliy hisob tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish zarurligini alohida ta’kidlaydi.

Shuningdek, B. Toshmurodov bank tizimida aktivlar hisobini yuritishning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganib, ayniqsa “zamonaviy banklarda axborot texnologiyalari bilan bog‘liq aktivlarning ulushi ortib borayotganini qayd etadi”5. Uning fikricha, bu holat nomoddiy aktivlar hisobini yanada takomillashtirishni talab qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavjud adabiyotlarda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobining nazariy jihatlari yetarlicha yoritilgan. Biroq banklar faoliyatiga xos amaliy muammolar, xususan raqamli texnologiyalar va dasturiy mahsulotlar hisobini yuritish masalalari hali ham chuqur ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda banklarda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobini yuritish masalalari o‘rganildi. Tadqiqot metodlari sifatida analitik, solishtirma va hujjatli tahlil usullaridan foydalanildi. Asosiy vositalarning dastlabki qiymatini shakllantirish, ularning eskirishini hisoblash hamda nomoddiy aktivlarni hisobga olish jarayonlari amaliy ma’lumotlar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, buxgalteriya hisobi hujjatlari, inventar kartochkalar va memorial orderlar asosida aktivlarning hisobda aks ettirilishi o‘rganildi.

Tahlil va natijalar

Banklarda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobining samarali tashkil etilishi ularning moliyaviy natijalari va operatsion faoliyatini to‘g‘ri aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlil va olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida banklarda ushbu aktivlarni hisobga olish, baholash hamda ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bilan bog‘liq asosiy jihatlar atroflicha o‘rganib chiqildi.

---

2 Weygandt J.J., Kimmel P.D., Kieso D.E. Financial Accounting. – 10th ed. – New York: Wiley, 2018. – p. 388–402.

3 Horngren C.T., Harrison W.T., Oliver M.S. Accounting. – 11th ed. – Pearson Education, 2019. – p. 420–445.

4 Vahobov A.V. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 145–160-betlar.

5 Toshmurodov B.T. Banklarda buxgalteriya hisobi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 210–225-betlar.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ham ushbu soha bo‘yicha bir qancha qaror va farmonlar qabul qilinib turli xildagi chora-tadbirlar ham amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining buyrug‘i, 27.12.2024 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3593 O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti (21-sonli BHMS) “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma”6 ni tasdiqlash to‘g‘risida buyrug‘i bunga misol bo‘la oladi.

Mazkur buyruqning asosiy maqsadi xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini yagona tartib asosida tashkil etish, hisobvaraqlar rejasini tizimlashtirish hamda moliyaviy-xo‘jalik operatsiyalarini aniq va shaffof aks ettirishni ta’minlashdan iboratdir. Shuningdek, ushbu standart orqali hisob siyosatini takomillashtirish, buxgalteriya axborotining ishonchliligi va taqqoslanuvchanligini oshirish, hamda milliy hisob tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish ko‘zda tutilgan.

Mazkur buyruq qabul qilingandan so‘ng mamlakatimizda buxgalteriya hisobini yuritish tizimida bir qator muhim o‘zgarishlar kuzatildi. Avvalo, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda hisobvaraqlar rejasini yagona standart asosida shakllantirish joriy etilib, bu moliyaviy hisobotlarning taqqoslanuvchanligi va shaffofligini sezilarli darajada oshirdi. Shuningdek, aktivlar, majburiyatlar, daromad va xarajatlarni hisobga olishda aniqlik kuchayib, hisob siyosatini ishlab chiqishda tashkilotlarning mustaqilligi bilan birga mas’uliyati ham ortdi.

Bundan tashqari, yangi standart asosida tranzit, balansdan tashqari hamda kontr-hisobvaraqlardan foydalanish tartibi aniq belgilab berilgani sababli moliyaviy natijalarni hisoblash va tahlil qilish jarayoni soddalashdi. Bu esa korxonalar va banklarda moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, milliy buxgalteriya tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish yo‘lida muhim qadam qo‘yilib, investorlar uchun moliyaviy axborotning ochiqligi va ishonchliligi oshdi.

Ushbu jadval bank va moliyaviy tashkilotlarda qo‘llaniladigan hisoblar rejasining muhim qismini tashkil etadi. Unda daromadlar va asosiy vositalar bilan bog‘liq hisoblar tizimli ravishda guruhlangan.

1-jadval

“Bank buxgalteriya hisoblar rejasidagi daromadlar va asosiy vositalar hisoblari”7

Hisob raqami	Nomi	Hisob raqami	Nomi
16377	Muddati yetmagan foizlar	16500	Asosiy vositalar
16397	Boshqa majburiyatlar foizlari	16501	Yer
16400	Foizsiz daromadlar	16505	Tugallanmagan qurilish
16509	Binolar va inshootlar	16529	Transport vositalari
16511	Eskirish (binolar)	16531	Eskirish (transport)
16515	Ijara obyektlarini yaxshilash	16535	Mebel va jihozlar
16519	Eskirish (ijara obyektlari)	16539	Eskirish (mebel)
16541	To‘lov uskunalari	16549	Ijaraga berilgan vositalar
16543	Eskirish (uskunalar)	16551	Eskirish (ijaraga berilgan)

Ko‘rib chiqilgan tahlillardan kelib chiqib namunaviy muammoli vaziyatga yechim topamiz.

---

6 O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining buyrug‘i, 27.12.2024 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3593 O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti (21-sonli BHMS) “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma” https://www.lex.uz/uz/docs/-7282737

7 Bank buxgalteriya hisoblar rejasidagi daromadlar va asosiy vositalar hisoblari https://cbu.uz, https://lex.uz

Ko‘rib chiqilgan tahlillar asosida namunaviy muammoli vaziyatga mos yechim shakllantiriladi. Jumladan, hisobot davrida tijorat banki tomonidan bir qator xo‘jalik operatsiyalari amalga oshirilgan bo‘lib, ular doirasida bino xarid qilinib, unga tegishli soliq to‘lovlari hamda transport va o‘rnatish bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlar ham inobatga olingan. Mazkur aktivning foydali xizmat muddati uzoq muddatga belgilangan bo‘lib, uning tugatish qiymati ham oldindan aniqlangan. Shu bilan birga, dasturiy ta’minot nomoddiy aktiv sifatida ma’lum muddatga sotib olinib, belgilangan tartibda hisobga qabul qilingan. Hisobot yilida ushbu aktivlar bo‘yicha amortizatsiya to‘g‘ri chiziqli usul asosida hisoblangan. Keyingi davr yakunida esa bino qayta baholanib, uning qiymati oshirilgan, dasturiy ta’minot bo‘yicha esa qiymatning kamayishi aniqlanib, bu holat amaldagi me’yorlarga muvofiq aks ettirilgan.

Asosiy vosita boshlang‘ich qiymatini aniqlaymiz. Bunda quyidagi formuladan foydalanamiz:

Bq = Sq + Qx,

Bq — boshlang‘ich qiymat,

Sq — sotib olish qiymati,

Qx — qo‘shimcha xarajatlar

2-jadval.

Ko‘rsatkichlar va ularning qiymatlari

Ko‘rsatkich	**Summa (so‘mda)**
Bino narxi	5 000 000 000
Transport va o‘rnatish	200 000 000
Jami boshlang‘ich qiymat	5 200 000 000

Ushbu jadvalda asosiy vositaning boshlang‘ich qiymatini shakllantirish jarayoni aniq ko‘rsatib berilgan. Xususan, bino narxi 5 000 000 000 so‘mni tashkil etib, unga qo‘shimcha ravishda transport va o‘rnatish bilan bog‘liq 200 000 000 so‘m xarajatlar qo‘shilgan. Natijada asosiy vositaning jami boshlang‘ich qiymati 5 200 000 000 so‘m etib shakllangan. Bu holat asosiy vositalarni baholashda faqatgina sotib olish qiymati emas, balki uni foydalanishga tayyor holatga keltirish bilan bog‘liq barcha xarajatlar ham hisobga olinishi zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur yondashuv buxgalteriya hisobining muhim tamoyillaridan biri bo‘lib, asosiy vositalarning real qiymatini to‘g‘ri aks ettirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, boshlang‘ich qiymatning aniq belgilanishi keyingi bosqichlarda amortizatsiya hisoblashning to‘g‘riligini ta’minlaydi hamda moliyaviy hisobotlarda aktivlarning ishonchli aks ettirilishiga zamin yaratadi.

“Nomoddiy aktivlar” [7]

Hisob raqami	**Nomi**
16600	Nomoddiy aktivlar
16601	Nomoddiy aktivlar
16605	Nomoddiy aktivlarning yig‘ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv)
16609	O‘rnatish va yaratish jarayonidagi nomoddiy aktivlar
16617	Gudvill
16699	O‘rnatish va yaratish jarayonidagi nomoddiy aktivlar bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash zahirasi (kontr-aktiv)

Nomoddiy aktivlarni buxgalteriya hisobiga qabul qilish uchun quyidagi shartlar bajarilishi zarur: moddiy shaklga ega bo‘lmasligi, 12 oydan ortiq foydalanish muddati mavjudligi, qayta sotish uchun mo‘ljallanmaganligi, huquqni tasdiqlovchi hujjatlarning mavjudligi hamda identifikatsiya qilinishi. Nomoddiy aktivlarga patentlar, dasturiy ta’minotlar, ma’lumotlar bazalari, tovar belgisi, seleksiya yutuqlari, gudvill, tabiiy resurslardan foydalanish huquqi va boshqa shu kabi obyektlar kiradi.

Nomoddiy aktivlar kirimi bilan bog‘liq xarajatlar har bir inventar obyekt bo‘yicha jamlanadi va buxgalteriya hujjatlari asosida rasmiylashtiriladi. Ular inventar kartochkalarda (AV-6 shakl) aks ettirilib, tegishli memorial orderlar va bosh jurnal orqali hisoblotlarga kiritiladi.

Xulosa

Banklarda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, mazkur aktivlar bank faoliyatining muhim iqtisodiy asosini tashkil etadi. Ularning to‘g‘ri va ishonchli hisobga olinishi moliyaviy natijalarni aniq aks ettirish, shuningdek, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatini shakllantirishda barcha tegishli xarajatlarni to‘liq qamrab olish hamda amortizatsiya hisobini belgilangan tartibda yuritish moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, zamonaviy bank tizimida nomoddiy aktivlar, xususan dasturiy ta’minot va axborot texnologiyalarining ulushi ortib borayotgani ularni hisobga olish tizimini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot natijalari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobini ilmiy asosda tashkil etish banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish, aktivlardan samarali foydalanish hamda moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, banklarda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) talablariga moslashtirish darajasini oshirish zarur.

Ikkinchidan, nomoddiy aktivlar, ayniqsa dasturiy mahsulotlar va raqamli resurslarni baholash hamda hisobga olish metodikasini takomillashtirish lozim.

Uchinchidan, buxgalteriya hisobini yuritishda hujjatlashtirish jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali hisobning aniqligi hamda shaffofligini oshirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kieso D.E., Weygandt J.J., Warfield T.D. Intermediate Accounting. – 16th ed. – New York: Wiley, 2020. – 512–530 p.
2. Weygandt J.J., Kimmel P.D., Kieso D.E. Financial Accounting. – 10th ed. – New York: Wiley, 2018. – 388–402 p.
3. Horngren C.T., Harrison W.T., Oliver M.S. Accounting. – 11th ed. – Pearson Education, 2019. – 420–445 p.
4. Do‘stmuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. – Toshkent: Yangiyul poligraf servis, 2007. – 256 b.
5. Ergasheva Sh. Buxgalterskiy учет. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2010.
6. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining buyrug‘i, 27.12.2024 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3593 O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti (21-sonli BHMS) “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma” https://www.lex.uz/uz/docs/-7282737
7. Bank buxgalteriya hisoblar rejasidagi daromadlar va asosiy vositalar hisoblari https://cbu.uz, https://lex.uz